SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

“BOBURNOMA”DA SAMARQAND TARIXIY-GEOGRAFIK MAKON VA ETNOMADANIY QIYOFA SIFATIDA

Xudoyberdiyeva Aziza

SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyat instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Samarqand shahrining tarixiy-geografik makoni, tabiiy sharoiti, me’moriy qiyofasi hamda etnomadaniy xususiyatlarining yoritilishi tadqiq etiladi. Asarda aks etgan geografik ma’lumotlar, shaharsozlikka oid tavsiflar, moddiy madaniyat unsurlari va ijtimoiy hayot manzaralari tarixiy-badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, Boburning kuzatuvchanligi, voqelikni tasvirlash tamoyillari va mualliflik munosabatining Samarqand obrazini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Samarqand tasvirining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati bilan bir qatorda, uning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlashga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar

Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, Samarqand, tarixiy geografiya, etnografiya, etnomadaniy muhit, tarixiy makon, shaharsozlik, manbashunoslik, tarixiy xotira, badiiy tafakkur.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi Movarounnahrni muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida tasvirlagan nodir manbadir. Asarda muallifning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, turli hududlarning tabiiy-geografik xususiyatlari, shaharlar qiyofasi, aholi turmushi va madaniy muhiti o‘ziga xos kuzatuvchanlik asosida yoritilgan. Undagi Samarqand tasviri bir vaqtning o‘zida tarixiy-geografik ma’lumot ham, badiiy-memuar talqin ham bo‘lgani uchun uni ikki tomonlama – tarixiy geografiya va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish zarur. Shu jihatdan “Boburnoma” nafaqat tarixiy memuar, balki tarixiy geografiya, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ma’lumotlar majmuasidir.

Asarda alohida o‘rin tutadigan tarixiy makonlardan biri Samarqanddir. Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyat va ilm-fan markazlaridan bo‘lgan ushbu shahar Bobur uchun siyosiy, tarixiy va ma’naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Temuriylar davlati tarixida alohida mavqega ega Samarqandning tasviri orqali muallif o‘z davrining siyosiy jarayonlari, shahar madaniyati va tarixiy merosi haqida muhim ma’lumotlarni qayd etadi. Bobur Samarqandni astronomik-geografik atamalar bilan belgilaydi: shahar “beshinchi iqlim”ga mansub, uning uzunlik va kenglik darajalari keltiriladi, atrofidagi viloyat Movarounnahr deb ataladi. Hududiy chegaralar – sharqda Farg‘ona va Qoshg‘ar, g‘arbda Buxoro va Xorazm, shimolda Toshkent va Shohruxiya, janubda Balx va Termiz – hamda Ko‘hak suvi va Ko‘hak tepaligi ham tilga olinadi [1, 58–59-b].

Bobur Samarqandni shunday tasvirlaydi: Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahru kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli ramzi nujumiy daraja va daqiqadur, arzi daraja va daqiqadur. Shohi Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy hech g‘alaba bila munga dast topmag‘oni uchun baldai mahfuza derlar. [1,58-b] Ma’nosi: Yer yuzida Samarqanddek go‘zal shahar kam topiladi. U beshinchi iqlim mintaqasiga mansub. Uning geografik koordinatalari uzunlik va kenglik darajalari hamda daqiqalari bilan ko‘rsatilgan. Samarqand bu viloyatning markaziy shahri bo‘lib, uning atrofidagi hudud Movarounnahr deb ataladi. Dushmanlar ko‘p urinishlariga qaramay, bu shaharga kuch bilan ega bo‘la olmaganlari sababli uni “Baldai mahfuza”, ya’ni “himoyalangan shahar” deb ataydilar. “Samarqandcha latif shahr kamroqdur” deb yozilishi, ya’ni “yer yuzida unday shahar yo‘q” deyilmasligi muallifning mubolag‘asiz, ehtiyotkor bahosi sifatida talqin qilinadi. [2]

Shaharning geografik o‘rni astronomik koordinatalar bilan birga qo‘shni hududlar va asosiy suv manbai orqali ham belgilanadi: “Ma’muraning kanorasida voqe’ bo‘lubtur. Sharqi Farg‘ona va Qoshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyaki, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Termiz. Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqandtin ikki ko‘ruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. [1,59-b] Ma’nosi: Bu hudud obod va aholi yashaydigan yerlarning chekkasida joylashgan. Uning sharqida Farg‘ona va Qoshg‘ar, g‘arbida Buxoro va Xorazm, shimolida Toshkent va

Shohruxiya (ularni Shosh va Banokat deb ham ataydilar), janubida esa Balx va Termiz joylashgan. Bu qaydda Bobur Samarqandni to‘rt tomondan yirik markazlar – Farg‘ona, Buxoro, Toshkent va Balx – bilan bog‘lab, uning Movarounnahrdagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi.

“Boburnoma” asarida Samarqand bog‘lari tasviri alohida tarixiy, geografik va badiiy ahamiyat kasb etadi. Muallif Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Dilkusho, Naqshi Jahon, Bog‘i Chanbor, Bog‘i Shomal va Bog‘i Bihisht kabi ko‘plab bog‘ nomlarini tilga olish orqali Samarqandning o‘sha davrdagi betakror qiyofasini gavdalantiradi. Bobur Samarqand tasvirida shaharning bog‘lari va me’moriy yodgorliklariga alohida to‘xtaladi. Temur davrida boshlangan bunyodkorlikni uning avlodlari – Shohruh, Ulug‘bek va Muhammad Sulton – davom ettirgani, natijada shaharda madrasa, minora va boshqa inshootlar paydo bo‘lgani qayd etiladi. Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldu, Naqshi Jahon, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol va Bog‘i Bihisht shaharga ko‘rk bag‘ishlagan joylar sifatida sanaladi [1]. Boburning o‘zi ham shunday bog‘lar yaratishni orzu qilgan, ammo bu niyatini Kobul va Hindistonda amalga oshirgan.

Asardagi bog‘lar tasvirida nafaqat ularning joylashuvi, balki xiyobonlar, terakzorlar, suv manbalari va me’moriy inshootlar haqidagi ma’lumotlar ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa Boburning tabiatga bo‘lgan mehrini, go‘zallikni nozik his etishini hamda obodonchilik va bog‘dorchilik madaniyatiga alohida e’tibor bilan qaraganini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, bog‘larning geografik o‘rni va tarixiy holatiga oid qaydlar Samarqandning tarixiy landshafti, temuriylar davri me’morchiligi va bog‘ yaratish an’analarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

“Boburnoma”dagi Samarqand tasvirini o‘rganish shahar haqidagi tarixiy ma’lumotlarni aniqlash bilangina cheklanmaydi. Mazkur tasvirlarda muallifning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, makonni idrok etish usuli hamda voqelikka munosabati namoyon bo‘ladi. Shu sababli Samarqand obrazini tarixiy-geografik va etnomadaniy jihatlardan kompleks tahlil qilish asarning ilmiy-badiiy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tarixiy geografiya nuqtayi nazaridan “Boburnoma”da keltirilgan shahar va hududlar tavsifi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bobur muayyan makonni tasvirlar ekan, uning

geografik o‘rni, tabiiy sharoiti, suv manbalari, bog‘lari, ekinzorlari va shahar hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarga ham e’tibor qaratadi. Masalan, Konigil haqida yozar ekan, uning joylashuvini ko‘rsatibgina qolmay, suvning ikkinchi nomini ham qayd etadi: “Konigil Siyohob yoqasidadurki, bu qorasuvni Obirahmat ham derlar” [1, 56-b]. Bunday kuzatishlar muallifning geografik tafakkuri va amaliy tajribasini namoyon etadi.

Samarqand tasvirida shahar faqat muayyan hudud yoki siyosiy markaz sifatida emas, balki o‘ziga xos tabiiy va madaniy muhitga ega tarixiy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning joylashuvi, obodonchiligi, me’moriy inshootlari va atrofidagi bog‘-rog‘lar haqidagi ma’lumotlar shahar qiyofasini yaxlit tasavvur qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan Ulug‘bek rasadi tasviri xarakterlidir: ...yana bir yuksak imorati Ko‘hak tepaligi etaklaridagi rasadxonadirki, bu zij bitmakning maskanidir. Uch qavatlidir.” deb ta’riflaydi [1, 57-b].

Bobur tasvirlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u geografik ma’lumotlarni quruq qayd etish bilan cheklanmaydi. Muallif ko‘rgan va kuzatgan voqelikni o‘zining tarixiy tajribasi bilan bog‘laydi. Natijada geografik tavsiflar muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi.

Samarqandning tarixiy-geografik qiyofasini o‘rganishda shahar topografiyasi, uning ichki tuzilishi va muhim inshootlari haqidagi ma’lumotlarni alohida tahlil qilish lozim. Bunday yondashuv tarixiy makonning qanday tasvirlanganini aniqlash bilan birga, Boburning voqelikni kuzatish va tavsiflash tamoyillarini ham ochib beradi. Shu bilan birga, “Boburnoma”dagi geografik ma’lumotlarni zamonaviy tarixiy xaritalar va boshqa yozma manbalar bilan qiyoslash muhimdir. Masalan, Bobur Bo‘ldu bog‘ini Dilkushodan uzoqroq deb ko‘rsatadi; arxeolog U. Alimov esa uni “Samarqand–Panjikent yo‘lining o‘ng tomonida, Dilkusho bog‘idan 1,5 km narida” joylashtiradi [3]. Bunday qiyos Boburnoma qaydini arxeologik ma’lumotlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Samarqand tasviri tarixiy-geografik tafsilotlar, muallifning shaxsiy kuzatuvlari va badiiy tafakkuri uyg‘unligida shakllangan bo‘lib, o‘zining ko‘p qatlamli mazmuni bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bobur Samarqandni tasvirlash orqali nafaqat shaharning o‘sha davrdagi geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va obodonchiligini yoritadi, balki uning

Movarounnahr tarixidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqeini ham namoyon etadi. Muallif qayd etgan hududiy chegaralar, suv manbalari, joy nomlari va tabiiy-geografik xususiyatlar o‘tmish manzarasini tiklashga xizmat qiluvchi qimmatli tarixiy dalillar sifatida e’tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev va boshqalar. – Toshkent: O‘qtuvchi, 2008. – 288 b.

2. Sulaymonov I. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Samarqand tasviri // UzA. – 2020, 11-sentyabr.

3. Sadikova S. GIS mapping and visualizing historical data of the Bagi Buldi, Bagi Dilkusho, Bagi Davlet Abad gardens of Amir Temur // E3S Web of Conferences. – 2024. – Vol. 590.